

ISHLAB CHIQRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari
kafedra o'qituvchisi

D.K.Gafurova

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) fakulteti
3-bosqich talabasi

Najmiddinova Mohinabonu

Annotatsiya: Ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish mavzusi zamonaviy iqtisodiyot, sanoat, agrar soha va xizmatlar ko'lamida hamisha ilg'or zamonaviy g'oyalar va amaliy yondashuvlarni talab etadi. Har bir ishlab chiqarish tizimi, qaysi turdagi mahsulot yoki xizmatlarga ixtisoslashgan bo'lishidan qat'i nazar, o'z jarayonini takomillashtirish hamda resurslar — mehnat, xomashyo, kapital, vaqt va energiyadan eng yuqori natija hamda iqtisodiy samaradorlikka erishgan holda foydalanishga intiladi. Bu jarayonda boshqaruv, rejalashtirish, texnologiyani zamonaviylashtirish, ilg'or malakali kadrlardan samarali foydalanish, etkazib berish va logistika tizimini mukammallashtirish, mahsulot va xizmatlar sifatini doimiy ravishda oshirib borish, tannarxni kamaytirish, energiya va suv resurslarini tejash, chiqitlarni kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi qator ustuvor yo'nalishlar asosiy o'rinni egallaydi.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish boshqaruvi, tannarxni kamaytirish, zamonaviy



texnologiyalar, mehnat unumdorligi, energiya tejash, chiqindilarni kamaytirish, ekologik barqarorlik, ishlab chiqarish innovatsiyalari.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish nafaqat bir korxona yoki muayyan soha darajasida, balki butun iqtisodiyot uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Bu borada samarali boshqaruv, ishlab chiqarish rejimini ilmiy asosda shakllantirish, normativ va texnik hujjatlarni doimiy takomillashtirib borish, barcha bo‘g‘inlar o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash, mehnat taqsimotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni faol joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqobat muhitining kuchayib borayotgan bugungi sharoitida har bir ishlab chiqaruvchi maksimal darajada samaradorlik, istiqbolli rivojlanish, kam resurs sarfi evaziga yuqori qiymatga ega mahsulot va xizmat yartishga intiladi. Bu esa uzluksiz innovatsion jarayon, texnikaviy va tashkiliy yangilanish, ishlab chiqarish madaniyati va kasbiy bilimning doimiy yuksalishini taqozo etadi. Resurslardan oqilona foydalanish masalasi ishlab chiqarish samaradorligi, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Mavjud resurslarning har bir turi — mehnat resurslari, xomashyo va materiallar, loyihalash chiqar va energiya, vaqt va moliyaviy imkoniyatlar doimiy hisob-kitob qilingan, to‘g‘ri rejalashtirilgan, maqsadli va ehtiyotkorona boshqarilgan taqdirdagina maksimal natijani kafolatlaydi. Korxonaning barcha ishlab chiqarish bosqichlarida mavjud resurslar zaxirasini to‘g‘ri baholash, istiqbol va ehtiyojlarni to‘g‘ri aniqlash, taqsimlash va ulardan unumli foydalanishning kompleks mexanizmini yaratish, oraliq va yakuniy mahsulot sifatini muntazam nazorat qilish, ishlab chiqarish texnologiyasining har bir bosqichini optimallashtirish ustuvor vazifaga aylanishi zarur [1].

Zamonaviy ishlab chiqarishda resurslardan foydalanish samaradorligini qimmatini bir necha asosiy ko‘rsatkichlar asosida baholanadi. Eng avvalo, mahsulot yoki xizmatning tannarxi, birlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan mehnat



va material sarfi, foyda hajmi, yakuniy qiymatli parametrlar, ishlab chiqarish chiqitlarining miqdori, mahsulotning ekologik tozaligi, ishlab chiqarish siklining davomiyligi va energiya sarfining umumiy hajmi asosiy mezonlar sifatida qaraladi. Bu ko'rsatkichlarni doimiy yaxshilab borishda har bir ishlab chiqarish subyekti zamonaviy boshqaruv tamoyillariga, dunyoda o'zini oqlagan hamda milliy resurs potensialining bor imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intilishi lozim. Texnologik yangilanish va ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash resurslardan unumli foydalanish va samaradorlikka erishishning eng asosiy yo'nalishlaridan sanaladi. Bu borada zamonaviy energiya tejoychi asbob-uskunalarini ish jarayoniga tatbiq etish, ishlab chiqarish liniyalarini avtomatlashtirish va raqamlash, zamonaviy standart asosida boshqaruv va monitoring tizimini tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish siklini qisqartirish, ishchi kuchining malaka va kasb mahoratini oshirish, ishlab chiqarishda ortiqcha yo'qotishlarga zamin bo'layotgan omillarni aniqlab ularning oldini olish natijasida samaradorlik oshadi va resurslar tejraladi [2].

Jarayonlarni mukammal tashkil qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish uchun, eng avvalo, ishlab chiqarish texnologik xaritasining to'g'ri tuzilishi va har bir bosqichning vazifalari aniq belgilanishi zarur. Texnologik va tashkiliy tartib uchun har bir bo'g'inda ortiqcha resurs sarfini, ishchi vaqtining yo'qotilishini, asosiy vositalar va materiallarning samarali ishlatilmaslik hollari oldini olish maqsadida tahlil olib boriladi va samaradorlikka ziddiyatli omillar aniqlanadi. Bu orqali zaxiralarning ortiqcha sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish tannarxini minimallashtirish va yakuniy ishlab chiqarish natijalari sifatini oshirish imkoniyati yuzaga chiqadi. Mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini barqaror ta'minlashda zamonaviy boshqaruv tamoyillarining kuchli ahamiyati mavjud. Har bir korxona va tashkilot rahbariyati barcha ishlab chiqarish bosqichlarida



o'z zimmasidagi mas'uliyatga puxta yondashishi, innovatsion qarorlarni amalga oshirishda ochiqlik, shaffoflik va muvofiqlik mezonlaridan chekinmasligi kerak. Bozor iqtisodiyotining talab va ehtiyojlari, iste'molchi xohish-istaklarining doimiy o'zgarib borishi, raqobatchilar faoliyatining turlicha shakllanishi — bularning barchasi ishlab chiqarish samaradorligiga har bir kun muhim ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish subyektlari bozorning ichki va tashqi muhitiga moslashish, yangi texnologiyalar va ilg'or yondashuvlarni o'z vaqtida joriy qilish bo'yicha harakatlarini uzluksiz davom ettiradi [3].

Moliyaviy boshqaruv va investorlarni jalb qilishda ham resurslardan oqilona foydalanish, samarali investitsion strategiyalarni ishlab chiqish, moliyaviy risklarni kamaytirish, har bir loyiha yoki ishlab chiqarish yo'nalishining iqtisodiy samaradorligini obyektiv baholash, muqobil variantlarni ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Markaziy va joylardagi resurs zaxiralarini boshqarish, ishlab chiqarish oqimini muvofiqlashtirib borish, yangi ishlab chiqarish va texnologik loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali ortiqcha xavf va chiqimlarni oldindan ko'ra olish, mavjud resurslarni eng muhim va ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish mumkin. Raqamli texnologiyalar, aqlli boshqaruv va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari orqali ishlab chiqarish jarayonlari ustidan batafsil nazorat o'rnatiladi, har bir ish bosqichi va ehtiyoj yaratuvchi manbalar soni, sifat darajasi va sarfi bo'yicha aniqlik va tezkorlik paydo bo'ladi. Mahsulot chiqarishning aksariyat texnologik bosqichlari zamonaviy boshqaruv dasturlari yordamida qanday sifat, qay darajada va qanday resurslar hisobiga amalga oshirilayotganini bir vaqtning o'zida kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa boshqaruv sifatini oshiradi, ishlab chiqaruvchilar va mas'ul rahbarlarga tezkor va asosli qarorlar qabul qilish, rejalashtirish va bajarilishini monitoring qilishda katta yengillik yaratadi. Resurslardan oqilona foydalanish jarayoni faqat ishlab chiqarish zaxiralari va texnika-modernizatsiya ishlari bilan cheklanib qolmasligi lozim.



Bu borada inson resurslari — ijodiy salohiyat, bilim, kasbiy mahorat, ilgʻor ish tajribasi, oʻz ustida ishlash motivatsiyasi ham asosiy oʻrin tutadi. Har bir tashkilot oʻz xodimlari salohiyatini muttasil oshirib boradigan muhit yaratishi, zamonaviy kasbiy rivojlantirish, ragʻbatlantirish va ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirishi lozim. Kasbiy raqobatbardoshlik, yangi innovatsion fikr va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, korporativ bilimlar almashinuvi, ochiq va adolatli boshqaruv muhitini shakllantirish orqali inson resurslaridan ham eng yuqori darajada foyda olish mumkin [4].

Vaqt resursining toʻgʻri hisob-kitobi va uni oqilona rejalashtirish, texnologik jarayonlarni standartlashtirish, tayyor mahsulotning chakana va ommaviy isteʼmolga chiqarilish vaqtlarini qisqartirish, etkazib berish va sarf xarajatlarini minimallashtirish, asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanish yoʻllari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni taqozo etadi. Har bir loyiha yoki ishlab chiqarish yoʻnalishi boʻyicha vaqtli auditlar, oraliq natijalar tahlili va zarur hollarda oʻzgarishlarni tezkor amalga oshirish boshqaruvni zamonaviylashtirishga yordam beradi. Koʻrilgan choralar natijasida ishlab chiqarishda chiqitlarni kamaytirish, ortiqcha chiqim va isrofning oldini olish, har bir sarflangan resurs uchun maksimal darajada foyda olish imkoniyati paydo boʻladi. Korxonalarda chiqindilarni qayta ishlash, energiya va suvni tejash uchun maxsus dasturlar joriy etish, texnologik jarayonlar optimallashtirish, ishlab chiqarish bosqichlarining har birida ortiqcha va befoyda resurs sarfini aniqlab bartaraf etish, mahsulot tannarxini pasaytirish orqali bozor talabiga moslashish va raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Ishlab chiqarishda zamonaviy korxona yoki tashkilot har doim oʻz bozor pozitsiyasini mustahkamlash, yangi sifat va texnik imkoniyatlarga ega mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish, texnika va texnologiyani innovatsion tarzda rivojlantirish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish va boshqaruvning barcha boʻgʻinlarida professional koʻnikmalar va masʼuliyatni oshirishi kerak. Har bir soha va yoʻnalishda ham zamonaviy



talablarga javob beradigan ilgʻor tajriba, mutaxassislarning faol ishtiroki va doimiy tahlil asosida shakllantiriladigan yondashuvlar ishlab chiqarishni natijali hamda barqaror rivojlanishini taʼminlaydi. Korxona boshqaruv tizimi, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligiga bevosita taʼsir qiluvchi omillarni chuqur taxlil qilib, ishlab chiqarish bosqichlarida zaxiralarni tejash, barcha resurslarni optimal darajada taqsimlash, texnologiyaning har bir bosqichida ortiqcha va befoyda resurs sarfini bartaraf etib borish hamda eng soʻnggi texnik vositalardan samarali foydalanish orqali ustuvor natijalarga erishish mumkin. Bu boradagi har bir amaliy harakat, tafovut, yangilik va ilgʻor yondashuv ishlab chiqarish samaradorligi hamda umumiy iqtisodiy barqarorlik uchun poydevor vazifasini oʻtaydi. Yuqorida sanab oʻtilgan yoʻnalishlar, har bir ishlab chiqarish bosqichida barcha resurslardan samarali va oqilona foydalanishni tashkil qilish, ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish, mahsulot tannarxining pasayishi, sifatning yuksalishi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, bozor talabiga bardavom moslashish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Harakatlarni kuchaytirish, zamonaviy texnologiya va boshqaruv tizimlarini faol joriy qilish, ishlab chiqarishda resurslar tejash tamoyillariga qatʼiy amal qilish, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni birinchi oʻringa qoʻyish, mavjud salohiyat va imkoniyatlarni har tomonlama ishga solish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va resurslardan oqilona foydalanishga erishiladi [5].

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish hozirgi zamon global iqtisodiyoti, ilgʻor texnologiyalar, bozor talabiga moslashish va jahon tajribasini oʻzlashtirish doirasida eng dolzarb hamda istiqbolli yoʻnalish hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish taraqqiyoti har doim ushbu tamoyillarga amal qilish, mavjud resurs va imkoniyatlarni eng oqilona yoʻlga solish, har bir bosqichda samaradorlikka intilish orqali taʼminlanadi. Innovatsion yondashuv,



raqamli texnologiyalar, mehnat va resurslarni boshqarishda muvofiqlik, samarali tashkilotchilik, professional va kasb malakasiga ega inson resurslari, ochiq va shaffof boshqaruv, ekologik mas'uliyatli ishlab chiqarish madaniyati muhim ahamiyatga ega. Ana shu ustuvor yo'nalishlar har bir korxona va ishlab chiqarish subyekti uchun barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirahmonov, O. (2019). "Ishlab chiqarishda resurslardan samarali foydalanish tamoyillari". Samarqand iqtisodiyot va servis instituti axborotnomasi, 2(18), 55-60.
2. Abdullayeva, N. (2021). "Qishloq xo'jaligida resurslar samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'nalishlari". O'zbekiston agrar ilmi, 3(41), 74-79.
3. Azizov, Sh. (2020). "Sanoatda resurslardan oqilona foydalanish: muammo va istiqbollar". Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy jurnali, 2(28), 45-51.
4. G'afurov, A., Tursunov, B. (2018). "Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlarning ahamiyati". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(11), 89-96.
5. Jo'raev, T., Hamidov, M. (2019). "Korxonalarda resurslardan samarali foydalanish yo'llari". O'zbekiston milliy universiteti ilmiy axborotlari, 1(57), 120-125.
6. Karimov, H. (2017). "Ishlab chiqarishda energiya resurslaridan samarali foydalanish va muammolari". Energetik muammolar, 3(25), 34-39.
7. Mengnorov, A.A. (2022). "Agrar tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari". O'zbekiston fan va taraqqiyot jurnali, 1(9), 88-93.

